



Leksik dubletlarning lug'at tarkibidagi o'rni va ahamiyati

Xodjayeva Dilafruz Izzatullayevna

Buxoro Davlat universiteti, PhD, Tabiiy fanlarda chet tili kafedrası mudirasi

M. G. Yunusova

Xorijiy tillar fakulteti, Ingliz tili lingvistikasi II bosqich magistranti

Email: makhsady.yunusova@gmail.com

Annotatsiya: Til har bir davrda o'sib boradigan tabiiy fenomenadir. Vaqt o'tgan sayin har bir tilda turli xil sabablarga ko'ra grammatik, fonetik, leksik, semantik va shu kabi ko'plab o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Tilning bunday o'zgarishlarga uchrab turishi esa tilning o'sib borayotganidan dalolat beradi. Quyida keltirilayotgan tezisda ham ingliz tilining lug'at tarkibining o'zgarish sabablari va omillari haqida qisqacha izlanish olib borilgan.

Kalit so'zlar: so'z o'zlashtirilishi, leksik dubletlar, qabul qiluvchi til, tilning lug'at tarkibi, shakl va mazmun.

Hammizga ma'lumki, Buyuk Britaniya davlatiga turli davrlarda boshqa til va elat egalari tomonidan bosqinlar uyushtirilgan va buning natijasida tilning lug'at tarkibida juda katta o'zgarishlar sodir bo'lgan, ya'ni yangi so'zlarning qabul qilinishi, tilda mavjud so'zlarning iste'moldan chiqib ketishi yoki mavjud bo'lgan so'zning o'zi shakl va mazmun jihatdan qisman o'zgarish bilan boshqa tildan qayta qabul qilinishi natijasida tilning lug'at tarkibi doimiy ravishda o'sib borgan.

So'zlar tilga turli xil yo'llar orqali kirib kelishi tufayli tilning lug'at tarkibi dinamik o'zgarishda bo'ladi. Til lug'at tarkibining o'zgarib borishining asosiy omillaridan biri bu tilda mavjud so'zning boshqa tildan shakl va mazmun jihatdan o'zgarishlar bilan turli davrlarda kirib kelishidir. So'z o'zlashtirishning bunday usuli natijasida tilda leksik dubletlar deb ataladigan so'z ko'rinishi paydo bo'ladi.

Leksik dubletlar eng qadimiy va keng qamrovli leksiko-semantik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Leksik dubletlar deb, bir tilda ikki yoki undan ortiq umumiy kelib chiqish tarixiga ega bo'lgan, ayrim paytlarda qayta o'zlashtirish natijasida til lug'at boyligi tarkibiga kirgan, semantik jihatdan bir xil yoki turli davrlarda ma'no jihatdan farqlanishlarga uchragan va talaffuzi bir-biriga yaqin bo'lgan so'z juftliklariga aytiladi. Leksik dubletlarning eng ko'p tarqalgan turi bu etimologik dubletlar hisoblanadi.

Channel - canal so'zlarining etimologik juftligini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ikkala so'z ham eski fransuz **chanel**, **chenel** so'zlardan kelib chiqqan bo'lib, ammo bu so'zlarning o'zi ham lotin tilidagi **canālis** "trubka, kanal" so'zlaridan o'zlashtirilgan. Ya'ni ingliz tilidagi **channel – canal** so'zlari fransuz tildan o'zlashtirilgan bo'lib, ikkala tildagi "kanal" ma'nosini beruvchi so'zlarning etimologik kelib chiqishi lotin tiliga borib taqaladi. **Channel** so'zi ingliz tilida XIII asrda paydo bo'lgan bo'lib, "oqayotgan suv yo'lagi" ma'nosida qo'llanilgan, Keyinchalik bu so'z yangi ma'nolarga ega bo'ldi: XIV asrda "yo'nalish", XVII asrda esa "truba" ma'nolarida qo'llanilgan. XV asrda ingliz tilida xuddi shu ma'noda ya'ni, "suyuqlikni yetkazib beradigan trubka" manosi va "channel" so'ziga shakl jihatdan yaqin bo'lgan "canal" shaklidagi so'z paydo bo'ldi.



Zamonaviy ingliz tilida bu soʻz turli maʼnolarda qoʻllaniladi: “channel” soʻzi “boʻgʻoz, kanal, suv oqimi” maʼnolarida, yaʼni tabiiy suv oqimi maʼnosida; ayni shu damda “canal” soʻzi esa birozgina tor maʼnoda, yaʼnikim, “sunʼiy kanal, suv oʻtadigan joy” maʼnolarida qoʻllaniladi¹.

Lotin tilidan “**quies, quietus**” soʻzlari ingliz tiliga toʻgʻrida-toʻgʻri qabul qilinganda “tinchlik, dam olish” maʼnolari bilan quiet [ˈkwaɪət] — “tinch” shaklida qabul qilingan. Xuddi shu soʻz fransuz tilidan qabul qilinganda esa quiet [ˈkwaɪət] — “juda, umuman” maʼno va shakllari bilan oʻzlashtirilgan².

Hozirgi kunda ingliz tilida mavjud koʻpgina dubletlarning kelib chiqishi roman tillarga borib taqaladi. Shu bilan birgalikda anglo-skandinav dubletlar (disk - disc; shirt - skirt) va sof inglizcha dubletlar ham mavjud (shade и shadow; scale и shell)³.

Koʻpgina etimologik dubletlarning tarixiy umumiyligi yaqqol koʻzga tashlanmasligi, shakl va maʼno jihatdan bir-biridan uzoqlashib ketgan boʻlishi mumkin. Bunday dubletlarning yakka oʻzakdan kelib chiqishini faqatgina tilni tarixiy jihatdan oʻrganishgina ochib bera oladi.

Hozirgi kunda ingliz tilida mavjud koʻpgina dubletlarning kelib chiqishi roman tillarga borib taqaladi. Shu bilan birgalikda anglo-skandinav dubletlar (disk - disc; shirt - skirt) va sof inglizcha dubletlar ham mavjud (shade и shadow; scale и shell)⁴.

Koʻpgina etimologik dubletlarning tarixiy umumiyligi yaqqol koʻzga tashlanmasligi, shakl va maʼno jihatdan bir-biridan uzoqlashib ketgan boʻlishi mumkin. Bunday dubletlarning yakka oʻzakdan kelib chiqishini faqatgina tilni tarixiy jihatdan oʻrganishgina ochib bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. D.I.Khodjaeva. Different viewpoints on lexicography and dictionary types//ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 11, Issue 2. – P. 1273-1276.
2. Khodjayeva Dilafroz Izatilloevna. LEXICOGRAPHIC ANALYSIS OF LINGUISTIC TERMS (ON THE BASIS OF MATERIALS OF EXPLANATORY DICTIONARIES OF THE ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES) // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. Vol. 24, Issue 06, 2020, ISSN: 1475-7192. P. 603-612 .
3. Saidova, M. U. (2019). Lexical Stylistic Devices and Literary Terms of Figurative Language. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN, 2277-3878. <https://www.ijrte.org/wp-content/uploads/papers/v8i3S/C10541083S19.pdf>.
4. Saidova, Muhayyo (2021) "SEMANTIC ANALYSIS OF LITERARY TERMS BY LITERARY TYPES IN "THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERATURE TERMS"," Philology Matters: Vol. 2021: Iss. 1, Article 11. DOI: 10.36078/987654486 Available at: <https://uzjournals.edu.uz/philolm/vol2021/iss1/11>.
5. Harper, D. Onlayn etimologiya lugʻati / D. Xarper // Kitoblar va ma'lumotnomalar / ma'lumotnoma [Elektron resurs]. - 2012. - kirish tartibi: [http:// www.etymonline.com/](http://www.etymonline.com/)

¹ Антрушина, Г. Б. Лексикология английского языка : учеб. пособие для студентов / Г. Б. Антрушина, О. В. Афанасьева, Н. Н. Морозова. — 2-е изд. — М. : Дрофа, 2000. — 288 с.

² Harper, D. The Online Etymology Dictionary / D. Harper // Books & Reference / Reference [Electronic resource]. — 2012. — Mode of access : <http://www.etymonline.com/>. — Date of access : 15.11.2013.

³ Антрушина, Г. Б. Лексикология английского языка : учеб. пособие для студентов / Г. Б. Антрушина, О. В. Афанасьева, Н. Н. Морозова. — 2-е изд. — М. : Дрофа, 2000. — 288 с. — С. 68

⁴ Антрушина, Г. Б. Лексикология английского языка : учеб. пособие для студентов / Г. Б. Антрушина, О. В. Афанасьева, Н. Н. Морозова. — 2-е изд. — М. : Дрофа, 2000. — 288 с. — С. 68